

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TABIIY FANLARNI O‘QITISH METODIKASI
VA UNI TAKOMILLASHTIRISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi
Rahmatullayeva Sabohat Sa‘dullayevna*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish ahamiyati yoritilgan. Maqolada tabiiy fanlarni qanday zamonaviy usullar orqali o‘qitish usul va vositalari yoritiladi. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar

Zamonaviy bilim, qatorda ilmiy xarakter, ekologizatsiya, ilmiy xarakter

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tabiiy fanlarni o‘qitish katta ahamiyatga ega. Chunki bu fan orqali o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki unda tabiatni sevish tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchidan o‘z ustida ishlash va zamonaviy bilimlarni egallab borishni talab qiladi.

Bugungi kunda o‘qituvchi o‘qitish uchun faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olishi va o‘quvchini bevosita mustaqil bilim olishga o‘rgatmog‘i lozim. Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimi, insoniy odob-axloqi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o‘qituvchi mohirlikdan ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta‘lim sohasini rivojlantirishga hissa qo‘shmog‘i talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda noan‘anaviy dars usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda o‘z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun imkon yaratish, sinfdagi o‘quvchilar o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hamkorlik tuyg‘ularini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi. Pedagogik texnologiya ma‘lumotlarni o‘zlashtirish uchun qulay shakl va usullardir. Demak, pedagogik texnologiya insonga odindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta‘sir o‘tkazish faoliyatidan iborat. Muammoli o‘qitishning asosi — o‘quvchilar bilish faolligini rivojlantirishdir. Muammoli o‘qitishni o‘z ichiga olgan darslarda o‘quvchilarga yangi ma‘lumotlarni o‘zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif qilinadi, toki, ular bilimlarni o‘zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo‘llanish usullarini egallab olsinlar. Muammoli dars quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: muammoli vaziyat yaratish; muammoli ifodalash; muammo echimini izlash; echimning to‘g‘riligini tekshirish. Dars shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo‘yilgan muammoga o‘quvchilarda qiziqish uyg‘onsin, bilim olish tizimidagi ahamiyati ko‘rsatilsin, yangi bilimlar olishga ehtiyoj tug‘ilsin. Darslarda

dasturlashtirilgan o‘qitish, ya’ni amaliy ishlardan, qiziqarli topshiriqlardan foydalanish muammosi o‘ta dolzarbdir.

Tabiiy fanlardagi har bir bob yuzasidan beriladigan amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotga tadbiq etish bilan izohlanadi. Amaliy mashg‘ulot va loyiha ishlari jarayonlarini zamonaviy o‘qitish usulida tashkil etish yanada dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har xil turdagi o‘quv mashg‘ulotlarining mantig‘ini o‘rganish shuni ta’kidlashga imkon beradiki, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning barcha noan’anaviy shakllari (amaliy mashg‘ulot, ekskursiya, tabiat qo‘ynida sayohat, maktab yer uchastkalari, geografik maydonchalar) ularning ta’lim maqsadlariga qarab, u yoki bu turdagi mashg‘ulotlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, Tabiiy fanlarni o‘qitish tizimida mashg‘ulotlar turini ko‘rsatib, uni o‘tkazish shaklini aniqlab olish zarur. Har bir mavzu o‘ziga xos mashg‘ulotlarga ega bo‘ladi, uni tanlab olish va qo‘llay olish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Tabiiy fanlarda zamonaviy darslarning ahamiyati quyidagicha etib belgilanadi:

- elementar ekologik madaniyatni shakllantirishda turli multimedia vositalardan foydalanib, oson usulda o‘quvchilar ongiga singdirish;
- mintaqaviy komponent orqali o‘lkashunoslik aspekti bilan bir qatorda ilmiy xarakter va ekologizatsiya tamoyillarini amalga oshirishda AKTni qo‘llash;
- darsda o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etishdan iborat bo‘lgan tabiiy fanlarda o‘quvchilarni rivojlantirishni muammosini hal etishda tabiiy obyektlar modellashtirish;
- mashg‘ulotning amaliy yo‘naltirilganligi hisobiga tajriba, amaliy va laboratoriya ishlari, kuzatishlar, ekskursiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish. Tabiiy fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari esa quyidagilardan tashkil topgan:
- ta’limning ijodiy usullaridan foydalanish (qisman izlash, evristik, muammoli);
- tabiiy fanlarni zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalangan holda faollik asosida qurish;
- o‘quvchining shaxsiy funksiyalarini shakllantirish;
- ta’limning ilmiy xarakterga ega bo‘lish va ko‘kalamzorlashtirish tamoyillarini amalga oshirish;
- o‘quvchilarda dunyoning barcha odamlar, barcha tirik mavjudotlar uchun o‘ziga xos va umumiy uy-joy sifatidagi yagona rang-barang qiyofasini yaratish;
- vizualizatsiya asosida turli xil bilim manbalaridan foydalanish (diagramma, jadval, rasm, model va boshqalar) -yaqqol rivojlantiruvchi xarakter, amaliy yo‘nalishdir.¹

¹ N. B. Xaitova Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) magistranti. TABIIY FANLARDA ZAMONAVIY DARSLARNING AHAMIYATI

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tabiiy fanlarni o‘qitishga alohida e’tibor berishimiz kerak. Darslar shunday sifatli tashkil etilishi kerakki, darsning vazifasi bilimni o‘zlashtirish va tabiatni asrash ko‘nikmalari shakllantirilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasi: tabiiy fanlar.
2. K.T. Suyarov, Z.Y. Tillayeva, Z.B. Sangirova, M.K. Yuldasheva, M.M. Avezova, M.X. Baymuratova, D.S. Azamatova, M.T. Umaraliyeva, U.E. Alimuhamedova, S.G’. Xasanova, D.Q. Turdiyeva, N.V. Yusupova, G.A. Pahramova, Sh.M. Ganiyeva. Tabiiy fanlar 1-sinf., Toshkent-2020.
3. K.T. Suyarov, Z.Y. Tillayeva, Z.B. Sangirova, M.K. Yuldasheva, M.M. Avezova, M.X. Baymuratova, D.S. Azamatova, M.T. Umaraliyeva, U.E. Alimuhamedova, S.G’. Xasanova, D.T. Hasanova, D.Q. Turdiyeva. Tabiiy fanlar 2-sinf., Toshkent-2020.

